BRONZA DAVRI MADANIY JARAYONLARIDAN KEYIN QURILISHDAGI O‘ZGARISHLAR: SURXONDARYO MISOLIDA

O‘roqov O‘tkir Azamat o‘g‘li

Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Surxondaryo hududida bronza davri madaniy jarayonlaridan keyingi qurilish an’analari va me’moriy yechimlarning o‘zgarishi arxeologik materiallar asosida tahlil qilinadi. Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston, Molali va Tillabuloq kabi yodgorliklar misolida qurilish texnikasi, xom g‘isht va paxsa ishlatilishi, turar-joy hamda xo‘jalik inshootlarining tuzilishi, pol va suvoq texnologiyalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari bronza davrida shakllangan me’moriy tajriba keyingi davrlar qurilish madaniyatining rivojlanishiga muayyan asos bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo, bronza davri, Sopolli madaniyati, Sopollitepa, Jarqo‘ton, qurilish texnologiyasi, me’morchilik, xom g‘isht, paxsa.

Bronza davri insoniyat tarixida madaniy, iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Janubiy O‘zbekiston, xususan Surxondaryo vohasi ushbu jarayonlarni o‘rganish uchun muhim arxeologik hududlardan biridir. Bu hududdagi yodgorliklar ilk sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlik va me’morchilikning shakllanishi hamda rivojlanishi haqida muhim ma’lumot beradi.

Tadqiqotning maqsadi — Surxondaryo hududida bronza davrida shakllangan qurilish an’analari va keyingi davrlardagi me’moriy o‘zgarishlarning asosiy jihatlarini arxeologik materiallar asosida umumlashtirish. Shu maqsadda qurilish materiallari, turar-joy va xo‘jalik inshootlarining tuzilishi, pol va suvoq texnikalari hamda me’moriy rejalashtirish elementlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning manbaviy asosini Surxondaryo va unga tutash hududlardagi bronza davri yodgorliklari bo‘yicha arxeologik tadqiqotlar hamda ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar tashkil etadi. Adabiyotlarda bronza davriga oid madaniy jarayonlar janubiy Turkmaniston, shimoliy Afg‘oniston, janubiy Tojikiston va shimoli-sharqiy Eron hududlari bilan o‘zaro aloqalar doirasida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Sopolli madaniyati va uning me’moriy xususiyatlari A. Askarov hamda boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, arxeologik-tipologik va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi. Yodgorliklardagi qurilish qoldiqlari, qurilish materiallari va rejalashtirish elementlari o‘zaro taqqoslanib, ularning tarixiy-madaniy ahamiyati umumlashtirildi.

Surxondaryo hududi bronza davridan boshlab shaharsozlik, me’morchilik va hunarmandchilik taraqqiy etgan makonlardan biri bo‘lgan. Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston, Molali va Tillabuloq yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar aholining xo‘jalik faoliyati bilan bir qatorda qurilish va me’morchilik bo‘yicha ham rivojlangan tajribaga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Sopollitepa yodgorligi qurilishida turli o‘lchamdagi xom g‘ishtlardan foydalanilgan. Manbalarda 22×12×42, 20×10×42, 22×12×44, 24×13×46 va 20×12×40 sm o‘lchamdagi xom g‘ishtlar qayd etilgan [8]. Qurilishda paxsa ham ishlatilgan, biroq xom g‘isht asosiy materiallardan biri bo‘lgan. Turar-joy va xo‘jalik binolari somon qo‘shilgan loy bilan suvalgan.

Bronza davri me’morchiligida bino ichki makonini tashkil etishga ham alohida e’tibor berilgan. Ayvon, ko‘cha, magistral ko‘cha, supa, ichki xona va zinapoya kabi rejalashtirish elementlarining qo‘llanilishi murakkab me’moriy tizim shakllanganidan dalolat beradi. Shuningdek, ustachilik va kulolchilik ustaxonalari, sopol pishirish pechlari kabi maxsus xo‘jalik inshootlarining mavjudligi ishlab chiqarish faoliyatining me’moriy makon bilan chambarchas bog‘langanini ko‘rsatadi.

Pol qurilishida turli texnologiyalardan foydalanilgan: gips va loy suvoq, g‘isht to‘shamasi, somon qo‘shilgan loy hamda ayrim hollarda kaolin bilan qoplangan yuzalar qayd etilgan. Bu holat bronza davri aholisi qurilish materiallarining xususiyatlarini yaxshi bilganini va ularni funksional ehtiyojga qarab tanlaganini ko‘rsatadi.

Bronza davri madaniy jarayonlaridan keyingi davrda qurilish an’analarida mahalliy tajriba bilan bir qatorda yangi madaniy va texnologik ta’sirlar ham namoyon bo‘lgan. Qurilishdagi o‘zgarishlarni faqat texnologik taraqqiyot bilan izohlash yetarli emas: aholi zichligi, xo‘jalikning murakkablashuvi, ijtimoiy munosabatlar va hududlararo madaniy aloqalar ham me’moriy yechimlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli bronza

davrida shakllangan qurilish tajribasi keyingi davrlar me’morchiligini tushunishda muhim tarixiy asos sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Surxondaryoda bronza davrida shakllangan qurilish madaniyati yuqori darajada tizimlashgan bo‘lib, unda xom g‘isht, paxsa, loy va somon kabi mahalliy materiallardan foydalanilgan. Sopollitepa va boshqa yodgorliklarning me’moriy rejalashtirilishi, turar-joy hamda ishlab chiqarish inshootlarining ajratilishi, pol va suvoq texnologiyalarining xilma-xilligi qadimgi quruvchilarning amaliy tajribasi rivojlanganini ko‘rsatadi.

Bronza davridan keyingi qurilishdagi o‘zgarishlar mahalliy me’moriy an’analar, yangi texnik yechimlar va hududlararo madaniy aloqalarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan. Demak, Surxondaryo misolida qurilish tarixini o‘rganish nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki qadimgi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini ham yoritishga imkon beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М., 1977

2. Turdiyev J.K. Surxondaryo va unga tutash hududlarning bronza davri madaniy aloqalariga oid tadqiqotlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birinchi xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019. – №192 (7422)

4. Раҳимов К.А. Бақтриянинг бронза даври оташгоҳлари хусусида мулоҳазалар // ИМКУ. – Вып. 39. – Самарканд, 2015

5. Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданиятининг глиптикаси ва сфрагистикаси: фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2018

6. Аскаров А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973

7. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977

8. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977